
Jinoyat ishlari bo'yicha Beshariq tuman sudi tomonidan "Yashil makon" umummilliyl loyihasi yuzasidan obodonlashtirish ishlari tashkil etildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev raisligida 2021 yil 2 noyabr kuni o'tkazilgan videoselektorda shaharlar, tuman markazlari hamda aholi punktlarida ekologik vaziyat va havo tozaligini yaxshilash maqsadida "Yashil makon" umummilliyl loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi va bu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt ko'chatlarini ekish, shu orqali yashil maydonlarni hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirish belgilandi hamda 10 dekabrga qadar daraxt ekish bo'yicha "dolzARB 40 kunlik" e'lon qilingan edi.

Shu munosabat bilan, jinoyat ishlari bo'yicha Beshariq tuman sudining raisi F.Sobirov boshchiligidagi tuman sudining sudyasi va barcha xodimlari "Yashil makon" umummilliyl loyihasini amalga oshirish maqsadida, "**dolzARB 40 kunlik**" shiori ostida sud binosining atrof xududiga iqlim sharoitiga mos manzarali daraxt ko'chatlari ekish va obodonlashtirish ishlari tashkil etildi.

2021-11-22 17:15:49